

ISSN (E) - 2181-1334

VOLUME 1, ISSUE 3, SEPTEMBER 2020

UZACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL



Инструменты



Мобильный вид



Общий доступ





“ACADEMIA SCIENCE” ILMY-TADQIQOTLAR MARKAZI

UzACADEMIA

**ILMIY-USLUBIY JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
ISSN (E) – 2181 - 1334**


BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

**VOL 1, ISSUE 3, SEPTEMBER 2020
1 – JILD**



**ICI WORLD of
JOURNALS**

academiascience.uz



Volume 1. Issue 3. September 2020

TAHRIRIYAT**Editor in chief**

Eshmatov Gayratjon Marupovich

Executive Secretary

Ravshanjon Abdullayev

*He is a history teacher at Baghdad District**8 Secondary School***Preparing for publishing**

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli

*Fergana State University***Bosh muharrir**

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

Mas'ul kotib

Ravshanjon Abdullayev

*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi***Nashrga tayyorlovchi**

Holiqov Muhriddin Tavakkaljon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti***TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI****Sultonali Mannopov***O'zbekiston xalq artisti, professor***Eshmetov Izzat Do'simbatovich***O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
texnika fanlari doktori, professor***Matiboev Taspolat Baltaboevich***Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik***Abdullayev Muzrobjon Gulamovich***Andijon davlat universiteti, professor***Akramova Shahnoza Abrorovna***Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasini
mudiri, Pedagogika fanlari doktori, dotsent***Arslanov Sharafutdin Sultanovich***kimyo fanlari doktori, professor***Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori***Oripov O'rolboy Ahmedovich***Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD***Fazliyeva Zebo Kamarbekovna***O'zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent***Azimov Baxtiyor Ganievich***O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***Xusanova Xayriniso Tayirovna***O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent***Smaylova Gulmari Yuldashevna***QRXTHQIMO hududiy markazi, dotsent***Otaqulov Fozil Sobirovich***FarDU bo'lim boshlig'i***Popov Dmitriy Vladimirovich***Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)***Raximova Gulchexra Sobirjonovna***Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD***Umarova Maxliyo Yunusovna***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, f.f.n, dotsent***Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari nomzodi***Toshtemirov Otabek Abidovich***Farg'ona politexnika instituti*

19.	Rasulova Iroda Akbarovna SOG'LUM BOLA – FURLOQ KELAJAK	97
20.	Qosimova Munisa Botirjon qizi O'ZBEK TILIDA ESHITIB TUSHUNISHNI PSIXOLINGVISTIK TAHLIL QILISH	100
21.	Насирова Шоира Нармурадовна, Махмудова Малохат Ахматовна ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО- ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ	103
22.	А. Абдукаюмов, И.С. Матуразов АНАЛИЗ ДИАГНОСТИРУЕМЫХ РАДИОЭЛЕКТРОННОГО ОБОРУДОВАНИЯ ВОЗДУШНЫХ СУДОВ НА ПРИМЕРЕ BOEING 787	110
23.	Jo'rayev Latif G'ayrat o'g'li МАКТАВ ALGEBRAIK TUSHUNCHALARINI OLIY ALGEBRA TUSHUNCHALARI YORDAMIDA ASOSLASH	115
24.	Allanuratova Gazal TEACHING VOCABULARY TO YOUNG LEARNERS	119
25.	Бобожонов Исломбек Усмоналиевич ТОШКЕНТ ШАХАР МАХАЛЛАЛАРИДА ЁШЛАР ЎРТАСИДАГИ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК (1991-2019)	123
26.	Kadirova sayyora olimjonovna ADVERTS AS AN AUTHENTIC MATERIAL IN LANGUAGE LESSONS	131
27.	Zamira Aliyeva O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI TO'G'RI O'QISHGA O'RGATISH USULLARI VA ROGLANISHI NI TQNI O'STIRISH	134
28.	Abdulkarimova Zilola Rahiddinovna SIGATLI DARSLAR TASHKIL ETISHIDA INTERGAOL METODLARNING O'RNI	139
29.	Rashidova Feruza Rasulovna COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	143
30.	Сейтхалилова Февзи Сейдалиевна КРОССВОРДЫ - К КАЖДОЙ ТЕМЕ УРОКА	148
31.	Туйчиева Гулхаё ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИДА ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ МОХИЯТИ ВА УНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	154
32.	Musurmonova Luiza Burkhanovna METHODS OF CHECKING HOMEWORK IN ENGLISH LESSONS	158
33.	Jumayeva Mohnur To'xtasin qizi FIZIKA FANINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	163
34.	Xojiyeva Maxfirat Yusupovna O'ZBEK TILIDA SHAXS TAVSIFI (G.G'ULOM "SHUM BOLA ASARI" MISOLIDA)	168
35.	Numanov Muxammadalishoxruxbek Zokirjon o'g'li Ergashev Abdumutal Ravziyorjon o'g'li YUK AVTOMOBILLARIDA QO'LLANILGAN KUCH SILINDRLARINI TAXLIL QILISH	172
36.	Bultakov Abdurasul Akbarovich LEKSIKOGRAFIK MEZONLAR	177
37.	Mamathodjaeva Madinabonu Jonibekovna IMPROVING LISTENING SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS THROUGH ENGLISH SONGS	181
38.	Гулямов Наримон Гулямович, Нурузова Зухра Абдиқадировна,	183

**O`ZBEK TILIDA SHAXS TAVSIFI
(G.G`ULOM "SHUM BOLA ASARI" MISOLIDIDA)**

Xojiyeva Maxfirat Yusupovna
Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek tilshunosligi kafedrasida
o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so`z birikmalari til imkoniyatlarining shaxsni kasbi, mashg`uloti, millati va yaqinlik munosabatiga ko`ra tavsiflovchi nutqiy hosilalari berilgan.

Kalit so`zlar: til, so`z birikmasi, kasb, millat, jins, nutq.

**PERSONAL DESCRIPTION IN UZBEK LANGUAGE
(ON THE EXAMPLE OF
G.GULOM'S COMPOSITION "SHUM BOLA")**

Khodjiyeva Makhfirat Yusupovna
Teacher of the Department of Uzbek Linguistics, Faculty of Philology,
Bukhara State University

Annotation: This article presents the speech derivations of personal pronouns in the Uzbek language, which describe the personality of the language in terms of profession, occupation, ethnicity and closeness.

Keywords: language, phrase, profession, nationality, gender, speech.

**ЛИЧНОЕ ОПИСАНИЕ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ
(НА ПРИМЕРЕ СОСТАВА Г.ГУЛОМА «ШУМ БОЛА»).**

Ходжиева Махфират Юсуповна
Преподаватель кафедры узбекского языкознания филологического
факультета Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье представлены речевые производные личных местоимений на узбекском языке, которые описывают личность языка с точки зрения профессии, рода занятий, этнической принадлежности и близости.

Ключевые слова: язык, фраза, профессия, национальность, пол, речь.

XXI asrda o'zbek tilshunosligida bir necha yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu yo'nalishlarning aksariyati shaxs va til munosabatlarini obyekt sifatida o'rgana boshladi. Misol uchun sotsiolingvistika ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini, shu bilan birga jamiyat til uchun til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rgana boshlagan bo'lsa, fan sifatida esa uning insonlararo munosabatlar bilan birga siyosiy xususiyatlarni ham, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganishini kuzatamiz.

Demak, sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini o'rganar ekan, sotsiopragmatika esa jamiyat(shaxs, ijtimoiy qatlam, yosh, jins, qarindoshlik...)muloqoti jarayonida lisoniy birliklarni tanlay olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalarini o'rganadi.

Til va shaxs munosabatlari haqida R. Jeykobson shunday yozgan edi. "Muayyan tilning aniq va aniq ilmiy tavsifi suhbatdoshlar orasida ularning ijtimoiy mavqeyi, jinsi yoki yoshi jihatidan tafovutlar mavjudligi yoki yo'qligi haqidagi grammatik va leksik qoidalarsiz ish tutib bo'lmaydi; Tilning umumiy tavsifida bunday qoidalarning o'rini aniqlash murakkab tilshunoslik muammosidir".

Darhaqiqat, tilshunoslikda shaxs tushunchasi antropolingvistik paradigmaning asosiy ilmiy istilohi bo'lguniga qadar semantik, morfologik, sintaktik jihatlardan tahlil qilinganligi ma'lum. Chunonchi, shaxsni nomlovchi leksemalar "Shaxs tavsifi nomlari" ostida ot mikrotizimida alohida lug'aviy ma'no to'dasini tashkil etishi substansial tahlil asosida aniqlangan. O'zbek substansial morfologiyasi mazkur lug'aviy ma'no to'dasi lug'aviy-ma'noviy guruhlarga bo'linishini va bunda semantik farqlovchi belgilarga tayanilganligini ko'rsatadi.

Shaxsni tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruhlar ichida shaxsni jinsi, millati, qarindoshlik, yaqinlik munosabati, ijtimoiy mavqeyiga ko'ra tasniflash fanimizda shaxs otlarini leksik mikrotizim sifatida o'rganish natijasidir. Ammo nutq jarayonida shaxsni jinsi, kasbi, millati, yaqinlik munosabatiga ko'ra tavsiflovchi ot leksemalarning sintaktik munosabatdan hosil bo'luvchi so'z birikmalarining yuzaga chiqishi kuzatiladiki, bu shaxs kategoriyasi uning muayyan belgi-xususiyatlarini ifodalovchi sintaktik birliklarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Masalan, *qozoq mirshab, kosib yigit, bo'zagar kampir, o'zbek mirshab, qozoq qo'ychi, qo'shni erkak, oshpaz xotin, hasharchi qo'ni-qo'shnilar* kabi ko'plab so'z birikmalari shaxsni muayyan kasb, jins, millatga mansubligi va yaqinlik munosabatiga ko'ra xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu nutqiy sintaktik birliklar kommunikativ jarayonda shaxsga tegishli ayni xususiyatlarni aniqlashtirish

leksikologiyasi asoslari” kitobida “o`zbek tilidagi ayg`ir so`zi bilan notanish bo`lgan kishi ayg`ir leksemasi o`mida bermalol erkak ot so`z birikmasini ishlataveradi”, deb osongina isbotlaydi. Chunki bu leksema va so`z birikmasi atash qiymatiga ko`ra teng qiymatlidir. Shuningdek, *xola* leksemasi o`mida *onaning singlisi* yoki *onaning opasi* so`z birkmalarining qo`llash imkoniyati bor. Ayni paytda leksemalar o`mida qo`llash bilan bir qatorda leksema va so`z birikmalarini yonma-yon, parallel ishlatish imkoniyati ham borki bunda *muallima* va *ayol o`qituvchi*, *o`qituvchi ayol* singari shaxsni tavsiflovchi so`z birikmalari nafaqat bir-birini almashtirib, balki nutqda yoma-yon parallel holda voqelana oladi. Shunday qilib tilimizda so`z birikmalarining leksemalarga atash vazifasi jihatidan teng qiymatligiga ko`plab misollarni keltirish mumkin. Har bir narsaning o`xshash va farqli tomoni bo`lganidek, so`z tilimizda tayyor material bo`lganligi bilan til birliklari sathida o`rganiladi va tushuncha ifodalaydi, so`z birikmasi esa nutq jarayonida so`zlarning o`zaro tobe hokimlik munosabatidan hosil bo`ladi va nutqiy birliklar sathining o`rganish obyekti hisoblanadi va so`zga nisbattan aniq tushunchani ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Назарова С. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талкинда. –Т.: Фан, 2015. – Б.112.
- 2.Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили системлексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
- 3.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Т.: Fan va texnologiya, 2009.- 414 б.
- 4.G`afur G`ulom. Shum bola. –Т.:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. –190 б.
- 5.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. –656 б.